



NADIRA ALAVUTDINOVA

**ONA TILI DARSLARIDA
NUTQIY KOMPETENSIYALARNI
SHAKLLANTIRISH
METODIKASI**

0'z.b.2
894
H-48

O'quv zali

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

ALAVUTDINOVA NADIRA GANIEVNA

**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY
KOMPETENSIYALARNI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

Monografiya

"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2023

O'z MU
O'zbek filologiyasi
fakulteti
ARM

UO'K: 494.375:371.3

KBK: 74.261.4

A 30

Alavutdinova Nadira Ganievna

Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi [Matn] : Monografiya / N.G. Alavutdinova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 102 b.

Monografiyada umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlarida belgilab berilgan tayanch va fanga oid umumiy nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda «ijodiy fikr», «ijodiy fikrlash» tushunchalari, ijodiy fikrlash ko'nikmasini hosil qilishda yozma ishlarning ahamiyati, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda psixologiya va ona tili fanlarining hamkorligi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning omillari atroflicha yoritilgan.

Monografiya oliy ta'lim muassasalari bakalavriat yo'nalishida o'qitiladigan "Ona tili o'qitish metodikasi" va "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili o'qituvchilari va mazkur masala bilan qiziqqani keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

M.Qurbonova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Z.T.Xolmonova – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.T. Israilova – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi.

Monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil 24-maydagi 5-sonli nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-0000-0-0

© Alavutdinova N.G.

© "Bookmany print" nashriyoti, 2023.

KIRISH

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'zbek tili ya'ni davlat tilini o'qitishga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi. O'tgan qisqa davr ichida ona tili o'qitishning o'ta muhim muammolariga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi: T.G'anievning «Ona tilidan mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish (idrok etish) faoliyatini faollashtirish»(1991), Sh.Yo'ldoshevaning «O'zbek maktablari ona tili darslarida qo'shma so'zlarni o'rgatishdagi izchillik» (1991), Q.Yusupovning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish» (1993), M.Rajabovanning «Tillarni bog'lab o'rgatish orqali o'quvchilarda do'stlik-qarindoshlikni tarbiyalash» (1993), N.Murodovanning «O'quvchi nutqida mahalliy sheva ta'sirida vujudga kelgan talaffuz hamda imlo xatolari va ularni tuzatish usullari» (1993), Q.Yunusovning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda orfografik hushyorlikni shakllantirish» (1993), M.Sobirovanning «O'zbek maktablari yuqori sinf o'quvchilariga sodda gap sintaksisini munozara usulida o'rgatish» (1994), N.Sattorovanning «O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish» (5-sinfda ona tili o'qitish jarayonida) (1995), T.Ziyodovanning «Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish»(1995), O'.Ro'zievaning «Uzluksiz ta'lim jarayonida bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari va 1-sinf o'quvchilari og'zaki nutqini o'stirish» (1995), N.Dadajonovanning «O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning nutqi ustida ishlash metodikasi»(1996), A.Bobomurodovanning «Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish»(1997), Sh.Yusupovanning «Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)» (1998), T.Yusupovanning «Uzluksiz ta'lim tizimi asosida maktabda o'quvchilarga bosh bo'laklarni o'rgatish»(1998), M. Saidovning «O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi» (2000), G.Qurbonovanning «Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida

«O'zbek tili» fani o'qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi» (2000), L. Mirjalolovanning «O'zbek tili mashg'ulotlarida bolalarni savol-javobga o'rgatishning nazariy-metodik asoslari» (2002), Sh.Bo'ronovanning «Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 5-sinflarida o'zbek tili o'qitishning ilmiy-metodik asoslari»(2002), M. Qaraxodjaevanning «Nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe'l asosida shakllantirish metodikasi» (2002), N.Yuldashevaning «Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinonimlarni yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasi»(2002), M. Mirmaxsudovanning «O'quvchilar nutqini takomillashtirishda grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari»(2004), X.Qurbonovanning «Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari»(2005), T.Yusupovanning «Gapning bosh bo'laklarini o'rganish jaryonida o'quvchilar nutqini o'stirishning lingvometodik asoslari»(2005), A.Hamroevning «Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish»(2005), M.Jo'raevning «O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganish metodikasining shakllanishi»(2005), G.Axmedovanning «O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini yasama so'zlar bilan boyitishning metodik asoslari»(2006), N.Umarovanning «Talabalarning o'zbekcha yozma nutqini o'stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi» (2007), Sh.Nurullaevanning «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi» (2007), N.Alavutdinovanning «Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi» (2008), A.Husanboevanning «O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari»(2008), Sh.Yuldashevaning «Davlat tili ta'limida o'quvchilar nutqiy malakalarini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari»(2008), G.Eshchanovanning «O'zbek tili darslarida she'riy asarlarni o'rganishning lingvometodik asoslari» (2009), O.Oxunjonovanning «Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi»(2009), K.Mavlonovanning «Ona tili fanini adabiyit fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish » (2019)mavzulardagi ilmiy-tadqiqot ishlari himoya qilindi. Biz yuqoridagi ishlarga tayangan holda ijodiy fikrlash ko'nikmasini hosil qilishda yozma ishlarning ahamiyati,

nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda psixologiya va ona tili fanlarining hamkorligi, o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning omillari atroflicha yoritishga harakat qildik.

I BOB. NUTQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

1.1. «Ijodiy fikr», «ijodiy fikrlash» tushunchalari haqida

Mamlakatimiz taraqqiyoti, uning taqdiri, birinchi navbatda, mustaqil fikrlaydigan va o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan, ma'naviy jihatdan barkamol, hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga javob beradigan yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun mamlakatda qabul qilingan ta'lim sohasidagi "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti"da belgilab qo'yilgan, Milliy o'quv dasturida yanada mukammallashtirilgan tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantirilgan.

1. Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida va birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olish, muomala madaniyatini egallash, ijtimoiy moslashuvchanlikni, jamoada ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi –mediamanbalardan amalga oshirilishi ko'zlanayotgan tayanch kompetensiyalarning bosh yo'nalishi mustaqil fikrga ega bo'lib, o'z fikrini yozma va og'zaki bayon eta olish kompetensiyasiga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Mustaqil fikr mustaqil tafakkurning, mustaqil tafakkur esa mustaqillik tafakkurining muhim jihatini tashkil etadi. Mustaqillik tafakkuri keng ma'noda:

- a) O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish;
- b) o'zining va o'z xalqining, Vatanning qadr-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish;
- v) yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodini, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa, jonini el-yurt istiqboliga baxshida etishdir.

Mustaqil fikr ijtimoiy hodisa bo'lib, u shaxsning sotsiodinamik holati, ya'ni yoshi, jinsi, etnik birlikka mansubligi, ma'lum bir sivilizatsion-sotsiopsixologik arxitipga aloqadorligi, mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tizim, mafkura, oila, ijtimoiy muhitning

tabiati hamda intilishi, maqsadi va ichki ma'naviy intellektual energiyasi, tashqi ijtimoiy muhit ta'siriga qarshi tura olish immuniteti bilan bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning mustaqil fikri va ularning mustaqil fikrlashini ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda, biz mazkur hodisaning quyidagi jihatlariga ahamiyat bermog'imiz lozim:

1. Biror predmet, voqea-hodisa, jarayonni mustaqil idrok etish.
2. Biror predmet, voqea-hodisa va jarayonga o'zida mavjud bo'lgan intellektual potentsiallarga asoslangan holda baho bera olish.
3. O'quvchining hayotiy tajribalari, o'qib o'rgangan bilimlari hamda kuzatuvlari natijasida erishgan malakasiga ko'ra o'zini, atrof-muhitni, ishtirok qilayotgan o'quv-mehnat jarayonini o'zgartirishga oid o'z qarashlarini va takliflarini ilgari surish.
4. O'quvchining badiiy, tarixiy adabiyotlarni o'zlashtirishi va shu asosda shakllangan sodda ilmiy-fantaziyasiga muvofiq kelajak to'g'risidagi fikrlari, rejalari va ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan amaliyotlar majmuasi to'g'risidagi mulohazalari uning tarkibiy qismini tashkil etadi. Mustaqil fikrlash esa mustaqil fikrning harakatdagi holatidir, ya'ni o'quvchining ma'lum bir predmet, voqea, hodisa, jarayonlarni o'zi egallagan bilimi, malakasi asosida taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrdan murakkab fikrlarga va ayni vaqtda murakkab fikrlardan sodda fikrlarga o'tish vaziyatlarida hamda mavjud ijtimoiy- tarixiy holatni hisobga olgan holda o'ziga xos mulohaza yuritishdir.

Fikrlash qobiliyati tafakkur jarayonining muhim jihatini tashkil qiladi. Biz sezgilar yordamida olingan ma'lumotlarni tafakkur jarayonida ishlab chiqib, narsa va hodisalarning mohiyati, ularning o'zaro bog'lanishi va taraqqiyotiga oid yangi bilimlar tizimiga ega bo'lamiz. Insonning aqlli, ongli bo'lishini ta'minlovchi tafakkur jarayoni tushuncha, hukm va xulosa kabilar orqali mavjud. Agar tushuncha ma'lum predmet va xulosalar xususiyatlarining umumiy hamda muhim belgilarini yaxlit holda ifodalasa, hukm predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa, munosabat jarayonini ifodalaydi. Tafakkurning muhim shakli bo'lgan xulosa yoki xulosa chiqarish ikki va undan ortiq predmetlar o'rtasidagi bog'lanish munosabatlarini anglatadi. Tafakkur yuqorida qayd qilingan asosiy shakllardan tashqari o'zining maxsus qonunlariga, uning

to'g'riligini ta'minlovchi qoidalarga ham egadir. Bu qoidalarga rioya etilmasa, fikrlar to'g'ri bo'lmaydi. Demak, u voqelikni to'g'ri aks ettira olmaydi.

Mustaqil fikr va mustaqil fikrlash, bir tomondan, alohida olingan o'quvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning unga nisbatan bo'lgan talabi bilan ham uzviy bog'liqdir. O'quvchining shaxsi haqida gapirganimizda 5-sinf o'quvchisining modellashtirilgan shaxsini nazarda tutamiz. Mustaqil fikrlovchi o'quvchi shaxsi takrorlanmas individualliklar majmuasidir. Shuning uchun ham biz mazkur masalaga hozirgi zamon psixologiyasi, pedagogikasi va ta'limning yangi pedagogik texnologiyasi nuqtai nazaridan yondashmog'imiz, o'quvchi shaxsi to'g'risidagi umumiy modelni aniq individga yaqinlashtirmog'imiz lozim. Bu o'rinda mustaqil fikrlash malakasiga egalik qilish bir qator yondashuvlarni talab etadi.

Birinchidan, o'quvchilarning nihoyatda keng axborot olamiga kirib borishini ta'minlashdir. Bunda, albatta, maktablarning moddiy-texnikaviy va informatsion qurilmalar bilan ta'minlanishi muhim o'rin tutadi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning o'z ona tillarini va ayni vaqtda, xorijiy tillarni mukammal bilishi va tillardagi axborot mazmunini solishtira olishi, chog'ishtirma induktiv xulosalar chiqarishi.

Uchinchidan, axborotlarni to'plash, qayta ishlashda o'quvchining ma'lum bir tamoyillarga asoslanishi hamda dunyoqarash madaniyatiga ega bo'lishi.

To'rtinchidan, fikrlar tahlilini amalga oshirishda zarur bo'lgan sodda tushunchalarning aniq mohiyatiga egalik qilishi va ulardan omilkorlik bilan foydalana bilish malakasi talab qilinadi. Mazkur yondashuvlar negizida o'quvchi shaxsining tilga bo'lgan munosabati va undan foydalana olish malakasi, nutqni tahlil qilish madaniyati kabilar muhim o'rin egallaydi. Ma'lumki, til kishilarning o'zini, borliqni bilishi hamda ularning xatti-harakatlarini boshqarishning muhim vositasidir. Til va nutq bir hodisa emas. Nutq ma'lum bir aniq munosabatdagi mavjud til bo'lib, ayni vaqtda muloqot va uning natijalarini ifodalaydi. To'g'rirog'i, nutq fikrning moddiylashgan ifodasidir. Shunga ko'ra, u kommunikativ fikrlash, ifodalash va ta'sir etish vazifalarini

bajaradi. Nutq yordamida tafakkur realikka aylanadi. Ayni vaqtda tafakkurning mavjudlik mexanizmi esa fikr va fikrlararo munosabatlardir. Har qanday fikrda ma'lum bir predmet yoki predmetlararo munosabat, jarayon va jarayonlararo munosabatlarning rost yoki yolg'on ekanligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Fikr hamisha gaplar yordamida voqelikka aylanadi. Shuning uchun ham biz fikrsiz gap va gapsiz fikr bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Gap ayni vaqtda shakl vazifasini o'tab, fikr uning mazmunini tashkil qiladi. Gapdagi ega va kesim o'rtasidagi munosabat gap mazmunining tugallanganligini bildirsa, fikrda gapning egasi uni o'zidan oldingi fikr bilan bog'laydi, kesimi esa yangi fikrning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu tarzda fikrlar bir jihatdan bir-birlari bilan bog'lanadi, ikkinchi jihatdan muntazam boyib boradi.

O'quvchilarda ijodiy fikrlash erkinligini shakllantirishning muhim jabhasi ularning o'zaro muloqoti hisoblanadi. Bu o'rinda biz muloqotlarni shartli: sinfda, sinfdan tashqari, maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida qaraymiz. Sinfda amalga oshirilayotgan tadbirlar rejalashtiriladi va bugungi kundagi an'anaviy va noan'anaviy usullarning mushtarakligida amalga oshiriladi. Bunda tuzatilishi kerak bo'lgan muhim kamchiliklardan biri o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida o'quvchi shaxsining dars jarayonining sub'ekti ekanligi o'qituvchining e'tiboridan chetda qolishidir. Mazkur omil sinfda o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikr erkinligining o'sishi va kengayishida jiddiy to'siq bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda maktab va maktabgacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimida band bo'lgan barcha mutaxassislarni ilg'or pedagogik texnologiyaning maqsad-vazifalari bilan yaqindan tanishtirish, shu asosda ularning malakasini oshirish lozim. Albatta, bu jarayon lokal holatda amalga oshirilmoqda. Masalaning yechimi uning uzluksizligi va samaradorligidadir.

Fikr erkinligi, unga ijodiy munosabatda bo'lishni, unga ijodiy munosabat bo'lishni shakllantirish madaniyati, avvalo, sinfda, ona tili darslarida so'zlarning ma'nolarini anglashdan, gaplarni tahlil qilishdan, ya'ni o'quvchining gapga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Ona tili darslarida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish jarayonida keltiriladigan gaplarning mazmuniga, ijtimoiy ahamiyatiga ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlash maqsadida alohida

e'tibor bermog'imiz lozim. Gap va uning mazmuniga bog'liq holda o'quvchilar o'rtasidagi fikr almashish, fikrlarni tozalash, fikr missiyasini kiritish erkinligini o'quvchilar e'tiboriga havola etish ularda ijodiy fikrlash madaniyatini shakllashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Ayni vaqtda nutq tafakkur jarayonini boyituvchi vosita vazifasini ham o'ynaydi. Bunda biz til va tafakkur birligi dialektikasidan kelib chiqmog'imiz lozim. Demak, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mavjud emas. Mana shunday birlikda biz maktab o'quvchilarida mustaqil ijodiy fikrning rivojlanishini qanday kuzatamiz? Bu o'rinda, avvalo, o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim jarayonida egallagan bilimlariga tayanmog'imiz zarur.

Ma'lumki, o'quvchilarning egallagan bilimlari, avvalo, ularning fikrini ifodalovchi tushunchalarning salmog'i, shuningdek, shu tushunchalarning hajm doirasi bilan o'lchanadi. Bu o'rinda biz o'quvchilarning ijodiy fikrini takomillashtirishda ona tili vositasi tafakkur jarayonida ishtirok etuvchi tushunchalarining soni va sifatiga ahamiyat bermog'imiz lozim. Albatta, mazkur kontekstda ikki yondashuv muhim o'rin tutadi. **Birinchidan**, o'quvchi ma'lum bir gapda ishlatayotgan so'z yoki tushunchaning mazmuniga qanday mohiyatni singdiradi. Masalan, «Vatan» tushunchasini olib qaraylik, 5-sinfda o'tiladigan adabiyot darsida Vatan mavzusiga bag'ishlangan asarlar darslikning «Vatanni sevmok iymondandir» deb nomlangan bo'limida keltirilgan.

Mazkur asarlarda yozuvchi, shoir Vatan tushunchasiga qanday sifatlarni kiritgan va shu kiritilgan sifatlarni o'quvchi ongida qay darajada in'ikos ettirmoqda. O'quvchining o'zi Vatan tushunchasi mazmunini tashkil etuvchi xususiyatlarni qanday tasavvur etadi?

Ikkinchidan, o'quvchining Vatan to'g'risidagi qarashlari tilda qanday tushunchalar va so'zlar orqali ifodalanadi? Biz uchun maktab o'quvchilarining ona tili darslarida o'z fikrlarini shu fikrlarga mos bo'lgan so'zlar va tushunchalar yordamida ifoda eta olish ko'nikmasini shakllantirish ahamiyatlidir. Buning uchun 5-sinf o'quvchilarining ona tili fanini o'zlashtirish me'yorlari belgilangan Davlat ta'lim standartidan kelib chiqqan holda fikr va nutq birligini takomillashtiruvchi uslubiy qo'llanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda muhim tamoyil ma'lum bir holatga, hodisaga